

BOLALARDA UCHRAYDIGAN ALLERGIK KASALLIKLARINING OLDINI OLISH CHORALARI

Utepova Gulzoda Bektursunovna

Ilmiy rahbar. Dotsent.

Urolova Zilola

3-kurs talabasi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, O'zbekiston Respublikasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17125669>

Kirish. Allergiya-bu organizmning atrof muhitga yuqori sezuvchanligi bo'lib, u antigenlarga javoban antitenalarni ishlab chiqarilishi bilan namoyon bo'ladi.

Dolzarbligi. Bolalardagi allergiya bizning davrimizning haqiqiy balosi. Har 20 ta boladan 1 tasida oziq-ovqat allergiyasi tashxisi qo'yiladi. Har 3 ta boladan 1tasida allergiya kasalligining rivojlanish xavfi mavjud. Bolalarda allergiya asosan immunitet tizimining potentsial xavfli mahsulot yoki moddaga reaksiyasi natijasida immunitet himoya jarayonlarini boshlaydi.

Chaqaloqlarda allergiya belgilar asosan; qizarish, qichishish diatez (yonoqlar terisida toshma paydo bo'lishi) yo'tal, bronxial asma. Bundan tashqari bo'shashgan axlat, ich qotishi, meteorizm kabi kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Nafas olish belgilari ham qiyinchilik bilan kechishi mumkin:

Bronxospazm, burun oqishi. Allergiyaga sabablaridan biri bu irsiy omil.

Agar ota-onalardan biri allergiya bilan og'rikan bo'lsa, bolada allergiya xavfi 36%ni tashkil qiladi.

Bola tanasining rivojlanishida onada, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, shuningdek homiladorlik paytida chekish antibiotiklarning haddan tasgqari dozasi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu omil sababli chaqaloqlarda allergiya 80% hollarda uchraydi.

Maqsad. Bolalarda allergiya, oziq-ovqat allergiyasining uchrash ehtimolini oldini olish va allergiyaga sabab bo'luvchi oziq-ovqat mahsulotlarini ona va bola ratsionidan chiqarib tashlash. Tabiiy taomlarni iste'mol qilish muhimligi.

Material va usullar.

1. Agar bola emizikli bo'lsa onaning bir qancha allergiya chaqiruvchi mahsulotlar bilan oziqlanishi xususan: shkolad, kakao, tovuq tuxumi, yong'oq, asal, ananas, har xil konserva mahsulotlari va dengiz mahsulotlari iste'mol qilishi natijasida bolada allergiya bilan og'rish ehtimoli tahlil qilindi.

2.Ona bolaga yaroqsiz kosmetika vositalarini, masalan sovun, krem, kir yuvish kukuni, chayqovchini ishlatish natijasida allergiyani paydo qilishi tahmin qilindi.

Natija va muhokama. Bolalarda allergiya kasalliklari har yili 5-10%ga oshib bormoqda. 2018 yilda bolalarning 20%dan ortig'i oziq-ovqat allergiyasidan azob chekkan. Ayniqsa bolalarda Astma kasalligi tarqalishi 2000yildan buyon 50%ga oshib bormoqda. Allergik rinit bolalar orasida 10-30% hollarda uchraydi. Allergiya kasalliklari 12-17 yoshlardagi o'smirlar orasida ko'proq tarqalgan. Allergiya belgilari: Ko'pincha bolalarda teri toshmalari, burun oqishi, ko'zlarning qizarishi, va nafas olishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Ba'zi bolalar o'sib ulg'ayganida allergiyalarni yo'qotishi, lekin ayrimlari hayot davomida allergik muammolarni boshdan kechirishlari mumkin.

Xulosa. Agar bolada allergiya bo'lsa Pediatr yoki Allergistga murojaat qilishi kerak.

Allergiyaning oldini olish allerginlar bilan aloqani istisno qilish va reaksiya chaqiradigan mahsulotlarni rad etishni o'z ichiga oladi. Uyni tez-tez namlab tozalash, gilam va to'qimachilik buyumlarini yig'ishtirish muhimdir.

Agar allergiya o'simliklarning gullashi bilan bog'liq bo'lsa, xafvli davrda ko'chadagi vaqtni minimallashtirish sayrdan keyin kiyimni almashtirish va dush qabul qilish kerak, va shuningdek emizikli ona ovqat ratsionidan allergiya chaqiruvchi mahsulotlarni shkolad, kakao, yong'oq, ananas har xil konserva va dengiz mahsulotlarini chiqarib tashlashi lozim. Tabiiy mahsulotlarni iste'mol qilishi muhim.

Foydanilgan adabiyotlar.

1. Holt, P.G., & Sly, P.D. (2019). "Allergic Diseases in Childhood: A Global Perspective."
2. Spergel, J.M., & Paller, A.S. (2003). "Atopic dermatitis and the atopic march."
3. Bousquet, J., et al. (2010). "Allergic Rhinitis and its Impact on Asthma (ARIA) guidelines."